



2024-YIL

"YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI"



ARMIYAMIZ

YANGI O'ZBEKISTONNING QALQONI

"Xalq va armiya bir tan-u bir jon" tamoyili asosida harbiy qismlarning eshiklari jamoatchilik, ayniqsa yoshlar uchun keng ochib berildi. Bunday sa'y-harakat harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirdi. Yoshlarda esa milliy armiyamizdan faxrlanish tuyg'usi va harbiy-vatanparvarlik ruhi ortdi.

Harbiy qism hamda muassasalarda buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Zahridin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi qahramonliklari, vatanparvarlik va jasoratini namoyon etuvchi o'quv sinflari tashkil etildi. Qurolli Kuchlarmizning jangovar shayligi, nufuzi yildan-yilga ortib borayotgan xalqaro maydonlarda o'tkazilayotgan musobaqalarda ham ko'zga yaqqol tashlandi.

O'zbekiston Mudofaa vazirligi jamoalari xalqaro musobaqalarda o'ndan ortiq rekordlarni yangilashdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda. Hech

shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharafli kasbga hurmat-ehtiram hissini uyg'otmoqda.

Bugun mamlakatimizda Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azm-u shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash hamda uning tadrijiy rivojlanishga vatanparvar shaxs sifatida hissa qo'shish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog'i kerak.

Ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda.

Uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasiga jamuljam bo'ldi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan mehnat qilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi.

"O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasini", O'zbekiston Respublikasi "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiyasi" da yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida muntazam va doimiy ravishda amalga oshirishi kerak bo'lgan ustuvor vazifalar belgilangan. Darvoqe, o'tgan davr mobaynida bo'linmalarning texnik va zaxira ta'minoti tizimi tubdan qayta ko'rib chiqildi, outsorsing xizmatlari va harbiy klasterlar tizimi joriy qilindi. Mudofaa sanoati majmuasi korxonalarini faol rivojlantirilmoqda, ayrim turdagi qurol-yarog' va texnika turlarini ishlab chiqarish va modernizatsiya qi-



lishni mahalliyashtirish boshlandi. Harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi kuchaytirildi. Harbiy oliy ta'lim muassasalari faoliyatida harbiy kadrlarni ilg'or texnologiyalar asosida tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy qilindi.

Bundan tashqari, harbiy sohani raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Qo'shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, aloqa tizimlari takomillashtirilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida qo'shinlarning jangovar tayyorgarlik samaradorligi, harbiy xizmatchilarning professionalligi, jangovar ruhi va psixologik shayligi sezilarli darajada oshdi.

Davomi 2-betda.



ARMIYAMIZ – YANGI O'ZBEKISTONNING QALQONI

Shunda, 2024-2028-yillar davomida, xususan 2024-yilda 2060 ta, 2025-yilda 2054 ta, 2026-yilda 2059 ta, 2027-yilda 2060 ta, 2028-yilda 2055 ta jami 10 288 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litseyi, kasb-hunar maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'quv-moddiy bazasini ta'minlashga erishiladi. Shuningdek, har yili 10-fevralga qadar harbiy okruglar tomonidan taqdim etilgan reja-jadval asosida mart-may oylarida harbiy poligonlarda ta'lim muassasalaridagi bitiruvchi sinf va kurs o'quvchilari (o'g'il bolalar) bilan amaliy otish mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tegishli qaror qabul qilnadi hamda ushbu tadbirlarni amalga oshirish davrida ta'lim muassasalarida transport vositalari (avtobuslar) bilan ta'minlanadi. Harbiy poligonlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'q-dori va nishonlar uchun sarflanadigan xarajatlar har yili 20-fevralga qadar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan shartnoma tuzgan holda mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan qoplab beriladi. Harbiy qism va muassasalar tomonidan o'zlariga birkirtilgan ta'lim muassasalariga chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini tashkil etish hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyaviy harbiy-sport musobaqalari va boshqa tadbirlar mas'ul

organlari, ya'ni mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati hamkorligi va ko'magida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi jamoasi hamda O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi nomidan qalblari vatanparvalik, shijoat va g'ayratga to'la yoshlarimizni, shuningdek, milliy armiyamizning ravnaqi uchun bevosita hissa qo'shib kelayotgan harbiy xizmatchilarni va barcha vatanparvar xalqimizni 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32-yilligi bilan samimiy qutlaymiz.

Yurtimizning osmoni musaffo, sarhadlarida tinchlik va osoyishtalik, millatlararo birdamlik va totuvlik boqiy va bardavom bo'lsin.

Tavakkal CHORIEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati, Mudofaa va xavfsizlik masalalari
qo'mitasi a'zosi, Jamoat xavfsizligi
universiteti "Tillarni o'rganish" kafedrasida
professori

Davomi. Boshi 1-betda.

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida, 2023-yil 8-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 591-sonli qarori e'lon qilindi. "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tadbirlarini moliyalashtirib, moddiy-texnik jihatdan ta'minlab, fan o'quv-moddiy bazasini barpo etish ishlarini mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan ish rejalari kiritilgan holda muntazam ravishda amalga oshiradilar.

Shuningdek, har yili 10-fevralga qadar harbiy okruglar tomonidan taqdim etilgan reja-jadval asosida mart-may oylarida harbiy poligonlarda ta'lim muassasalaridagi bitiruvchi sinf va kurs o'quvchilari (o'g'il bolalar) bilan amaliy otish mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha tegishli qaror qabul qilnadi hamda ushbu tadbirlarni amalga oshirish davrida ta'lim muassasalarida transport vositalari (avtobuslar) bilan ta'minlanadi. Harbiy poligonlarda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'q-dori va nishonlar uchun sarflanadigan xarajatlar har yili 20-fevralga qadar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan shartnoma tuzgan holda mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan qoplab beriladi. Harbiy qism va muassasalar tomonidan o'zlariga birkirtilgan ta'lim muassasalariga chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini tashkil etish hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyaviy harbiy-sport musobaqalari va boshqa tadbirlar mas'ul



YOSHILAR KELAJAGIMIZ BUNYODKORIDIR!

Shu kecha-kunduzda jamiyatimizning har bir sohasi rivoji uchun Yangi O'zbekistonni yaratishdek buyuk maqsadimiz sari Yurtboshimiz tinim bilmay mehnat qilib, islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Prezidentimiz tomonidan e'lon qilinayotgan yoshlar uchun imkoniyatlar, ular bilan ishlashning yangicha mexanizmlari - har bir kishi qalbida yoshlikning beg'ubor, baxtli damlariga qaytish istagini uyg'otayotgan bo'lsa, ajab emas.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan yoshlarga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarida o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buni davlatimiz tomonidan mudofaa, ta'limi va shunga o'xshash sohalarida yoshlarga berilayotgan imtiyozlar va yengiliklarda ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonlaridan 2024-yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi biz yoshlarga katta ishonch bilan birga, yuqori mas'uliyat yuklaydi.

Jumladan, Buxoro davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti koordinatori ham bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmoqda. 2023-yilda boshlang'ich tashkilot tomonidan universitetda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning sport va san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish va sog'lom raqobat muhitini tashkil qilish maqsadida bir qancha tadbir, tanlov, loyiha va seminar-treninglar tashkil qilindi.

Zakovat QUIZ", "Zakovat", "Munozara", "Zukko kitobxon", "Kvest", "Fast typing" intellektual loyihalari, "Talabalar ligasi" shaxmat musobaqasi, oliy ta'lim muassasalaridagi muddatli harbiy xizmatni o'tagan va "Qalqon" jamoatchilik guruhi a'zolari ishtirokida sportning "Street workout" turi bo'yicha O'zbekiston yoshlar ittifoqi ochiq turniri, maktab o'quvchilarining ta'til davomida vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Yetakchilar karvoni", "Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz" shiori ostida "Velomarafon", "Kibersport", O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi

munosabati bilan talabalar o'rtasida "Konstitutsiya bilimdoni" tanlovi, "Yangi konsitutsiya bilimdoni", talabalarning teatr san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida "Talant shou", "Talabalar teatr kunlari", "Talabalar kino kunlari", "Karaoke time", universitet talabalari o'rtasida "QVZ" ko'rik-tanlovi, talaba-yoshlar gavjum joylar va talabalar turar joylarida "BuxDU Party" kechki madaniy-konsert dasturlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

"Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilim-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarini, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniyalarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etamiz", - deydi Yurtboshimiz.

Darhaqiqat, 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb bejizga e'lon qilinmadi. Bugungi kunda tadbirkorlarga ham yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Jumladan, Buxoro davlat universiteti Yoshlar ittifoqi jamoasi tomonidan tadbirkorlik va biznesga bag'ishlangan qator loyihalar amalga oshirildi. Volontyorlar tomonidan Respublika va xalqaro miqyosdagi ekomarafonlar tashkil qilindi. 2024-yil ham nafaqat Yoshlar ittifoqi jamoasi uchun, balki barcha qalbida o't chaqnagan yoshlar uchun imkoniyatlar eshigini ochib berdi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Yangi O'zbekiston yoshlari, albatta yuksak marralarni zabt etadi. Zero, kichik irmoqlar birlashib katta daryolarni hosil qilganidek.

Feruz KARIMOV,
Buxoro davlat universiteti Yoshlar ittifoqi yetakchisi



Muhtaram Prezidentimizning O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigini navqiron avlodning barcha vakillari, xususan yosh olimlar qatori men ham oila a'zolarim bilan birgalikda alohida mamnuniyat bilan tinglab, ulug' tarixchi Gerodotning miloddan avvalgi 455-477 yillarda Sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr ehromlarida "Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilmoq kerak?!" nomli bitikni topgani ko'z oldimda gavalandi.

YOSH MUTAXASSIS — hal qiluvchi kuch

Demak, yoshlar masalasi hamisha ham o'z dolzarbligini saqlagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan ekan-da.

2024-yil O'zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi chog'ida, oila a'zolarim davrasida ikki akamning suhbatini beixtiyor qulog'imga chalingandi.

- Endi, bu yil yoshlarga imtiyoz katta bo'lar ekan-da-a?! - dedi katta akamiz.

- Yoshlikning o'zi imtiyoz emasmi?- dedi ikkinchisi unga qaramay turib o'yanchilik bilan.

Ilmoqli savolga berilgan bu javob menga ta'sir qildi. Yoshlik imtiyozi, degan ibora ko'nglimga o'tirdi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining tabrigidagi "Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk, xususan Yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm - fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz"- degan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash zahirida bevosita yoshlarimizga, ularning bugungi va kelgusidagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashishga qaratilgan real sa'y-harakatlar mujassam ekanligini bilib olish qiyin emas. Qolaversa, mamlakatimizda yoshlar masalasiga doimiy e'tibor yanada kuchayib, mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganligini davlatimiz rahbari tabrigida aniq va teran anglasa bo'ladi.

Meni bu tabrikdan keyin eng

ko'p bezovta qilgan savol-mushohada taxminan shunday bo'ldi: O'zbekiston yoshlariga Prezident shunday ishonch bildirmoqda! Endi buni oqlamoq kerak, munosib bo'lish zarur!

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlar to'liq safarbar etilayotganining yana bir tasdig'idir. Joriy yilda inson qadrini ulug'lash, aholi manfaatlarini ta'minlash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish asosiy vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yoshlarning sifatli ta'lim va tarbiya olib, barkamol insonlar bo'lib ulg'ayishlari, ularning tashabbus va g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro maydonlarda iste'dod va mahoratini namoyon etib, Vatanimizni dunyoga tanitishiga ko'maklashishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Xususan, o'tgan vaqt davomida Harakatlar strategiyasi doirasida barcha soha va yo'nalishlarda yuqori natijalarga erishildi. Quvonarli, qo'lga kiritilgan har bir natijalarni yurtdoshlarimiz bevosita o'z hayotlarida his qilib, o'zlari ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishmoqda. O'tgan besh yilda muammolarni tub mohiyatini o'rganish, uning yechimi yuzasidan chuqur o'ylangan va jamoatchilik bilan o'tkazilgan muhokamalar jarayonida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar orqali bartaraf etish tizimi yaratilgan bo'lsa, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida o'tgan vaqt davomida to'plangan tajribadan

kelib chiqqan holda mamlakatimizning nafaqat kelgusi besh yilligi, shu bilan birga uzoq vaqtga qaratilgan strategik rivojlanish va maqsadlari belgilab berilmoqda.

Jumladan, yoshlar uchun ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish,

yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda mamlakatimizda 52 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 213 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2022-yilda 28 foizga yetdi. Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi.

2024-yilga "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berilishi yoshlar — davlat va jamiyatning hal qiluvchi kuchi ekanligining amaldagi tasdig'idir. Bu esa zimmamizga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

Suxrob DAVLATOV,
Yashil iqtisodiyot va
agrobiznes kafedrasini mudiri
v.v.b.





U shoir sifatida baxtli yulduz ostida tugilgan. O'tgan asrning elliginchi yillarida atoqli adib Abdulla Qahhorning nazariga tushib, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi rahbarligiga tavsiya etilgan edi. Dastlabki she'riy to'plami - "Quyosh sha'niga" (1960 yil) nashr qilingandan keyin ko'p o'tmay haqgo'y adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov "Zamon. Qalb. Poeziya" nomli kitobida uni iste'dodli ijodkor sifatida e'tirof etgan, she'rlarini tahlil qilib, iliq fikrlar aytgan edi. O'zbekiston xalq shoiri Uyg'un esa uni "Zarafshon bulbuli" deb atagan, taniqli olim Mahmudali Yunusov unga "hayotda ham, she'riyatda ham serzavq, jo'shqin shoir" deya baho bergan edi. Adabiyotshunos Toji Qorayev bu iste'dodli qalam sohibi hayoti va ijodiga bag'shlangan tadqiqotida uning milliy she'riyatimiz taraqqiyotida o'rni hamda xizmatlarini teran va atroflicha ochib bergan.

Bu o'rinda iste'dodli lirik shoir va dostonnavis Toshpo'lat Hamid (1927-1984) haqida gap boryapti. Qiziltepa tumani Bo'ston qishlog'idagi ma'rifatli xonadonda tavallud topgan shoir hayotining asosiy qismi ilm-ziyo maskani bo'lmish Buxoroi sharif bilan chambarchas bog'liq. Bu muqaddas shaharda u o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha oliy ma'lumot oldi, Shofirkon tumanida muallimlik bilan o'z mehnat faoliyatini boshladi. 1955 yildan umrining oxirigacha Buxoro shahrida yashab, mehnat va ijod qildi. Ish faoliyatining kattagina davri "Buxoronoma" (o'sha vaqtlarda "Buxoro haqiqati" deb atalgan) gazetasi bilan bog'liq. Bu jamoada u bo'lim mudiri, muharrir o'rinbosari va bosh muharrir lavozimlarida ishladi.

Ilk she'riy to'plamidan so'ng birin-ketin uning "Mening asrim", "Asrorqulning qo'chqori", "Binafsha ufqlar", "Tilla darvoza", "Qora kiyik", "Quyosh zarralari" kabi kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Asarlari nufuzli gazeta-jurnallar, jamoa to'plamlari sahifalaridan o'rin oldi.

Shoirilar bo'ladiki, tirikligida yozgan asarlari o'qiladi. Keyin esa unutiladi. Boshqa toifa qalamkashlarning asarlari esa hayotligida ham hech kimning e'tiborini tortmaydi. Kitoblari do'kon peshtaxtalarida qolib ketadi. Toshpo'lat Hamid ijodi boshqacha taqdirga ega. Shoir adabiy merosi namunalarning aksariyatini hozir ham zavq bilan mutolaa etish, ulardagi go'zallik tuyg'usidan bahra olish mumkin. Fikrimizni dalillashga harakat qilamiz:

**Oftob nuri shalola,
Qirlarda yonar lola.
Kel. Quchoq'ing to'ldiray
Lolaqizg'aldoqlarga.
Tog'larga boq, tog'larga.**

Shu she'riy parchaning o'zidayoq bir emas, uchta badiiy san'at - tashbeh, istiora,

SHOIRNING IKKINCHI UMRI

murojaat kabilar mahorat bilan qo'llangan. Ayniqsa, quyosh shu'lalarining tepadan pastga shiddat bilan oqib tushadigan shalolaga qiyoslanishi she'rxon dilini beqiyos zavqqa to'ldiradi. "Yonish" aslida lolaga xos emas. Ammo cho'g'dek yarqirab turgan lolaqizg'aldoqlar lirik qahramonga gulxanning lovullab alanganishini eslatadi. Bunday ko'chimning o'z o'rnida istifoda qilinishi she'rga o'zgacha tarovat baxsh etgan.

Shoir lirik merosida shunday misra va baytlar borki, u kitobxon xotirasida bir umr muhrlanib qoladi: "Inson aqli Galaktika yo'lida chiroq" ("Mening asrim"), "Chiroqni yoqtirmas bir ko'rshapalak, Parvona nur deya bo'ladi halok" ("Chiroqlar"), "Ust-boshiga chang qo'nsa chertgan Oliftadan jirkanadi Yer" ("Tuproq o'yini"), "Zulmat qoplab yotgan ellarga Hayot, yog'du bo'lib kiraman" ("Quyosh zarrasi")...

Shoir liro-epik sohada ham barakali ijod qilgan. Uning "Ming yillik xayol va zarkokil", "Sohibjamol haqida" balladalar, "Tilla darvoza", "Tabarruk tuproq", "Qora kiyik" dostonlari o'z davrida she'riyat muxlislari tomonidan o'qilgan va yaxshi baholangan. "Tilla darvoza" dostonidagi mana bu misralar ona-Vatan - O'zbekistonga bo'lgan asl mehr-muhabbatning badiiy ifodasidir:

**Rasul og'a, Qaysin og'alar
Tog'larini maqtasin, mayli.
Oy ko'rinar Qizilqum menga
Olov yurakligi tufayli.
Agar taqdir otsa yiroqqa,
Kesilsa-da hatto oyog'im.
Topar edim uni so'roqlab,
Mehri bo'lib qo'ltiqtayog'im.**

Toshpo'lat Hamid faoliyatining yana bir muhim jihati borki, u shoirligidan ortiq bo'lsa ortiqki, aslo kam emas. U ijodiy hayotining hamma bosqichlarida yosh qalamkashlarga katta e'tibor bilan qaragan, ularning asl adabiyot yo'lga kirishlariga rahnamolik qilgan. Zamonaviy Buxoro adabiy muhitining yangidan shakllanishi va taraqqiy topishida ustoz shoirning katta xizmati bor. Ne'mat Aminov, Jamol Kamol, Maksim Karimov, Omon Muxtor, G'ulom Shomurod, Isroil Subhoniy kabi ijodkorlar shoir tomonidan tashkil etilgan "Nilufar" adabiy-badiiy to'garagining faol a'zolari bo'lishgan va ijod saboqlarini o'zlashtirishgan. Ushbu ish muallifi ham o'sha - yetmishinchi-saksoninchi yillarda mazkur to'garak a'zosi bo'lgan va dastlabki she'r va maqolalari "Buxoro haqiqati" gazetasi sahifalarida bosilgan.

Iste'dodli shoirni yana bir bor eslar ekanimiz, uning ezgu ishlari davom etayotganiga iishonch hosil qilamiz - bu esa uning ikkinchi umri barqarorligidan darak berib turibdi.

**G'.MURODOV,
filologiya fanlari
doktori, professor.**



Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "Kitob - beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili - bu kitobga do'st bo'lish va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir.

KITOB — BEMINNAT USTOZ

Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Bugungi axborot asrining ilg'or texnologiyalarisiz kunlarimizni tasavvur qilolmasakda, tengdoshlarimiz orasida kitobga oshno bo'lgan yoshlarning borligi quvonarli holdir. Ko'chako'yda, jamoat transportlarida qo'lida kitob tutgan insonlarni ko'rib quvonamiz. Afsuski, ba'zan yoshlar orasida qimmatli vaqtini behuda ishlarga sarflashlar, xususan, haddan tashqari ko'p ijtimoiy tarmoqlar va onlayn o'yinlarga mukkasidan ketish, internetdan almoiy-aljoyi videoriiklarni ko'rib kunini o'tkazish holatlari avj olgan. Fikrimcha, buning o'rniga o'qishdan tashqari o'tadigan vaqtini samarali ishlar uchun rejalashtirishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, kunning ma'lum qismlarini foydali kitob mutolaa uchun ajratish muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh" yanglig" o'qigan kitobi yillar o'tsa-da, kelajak rihayotida albatta asqotadi.

Kitobdan shunchaki ermak yoki bo'lmasa zerikishda qo'l keladigan bir vosita sifatida foydalanish xatodir. Boisi u tafakkur va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, mutolaa jarayoni nafaqat kishi ongi va ko'zi, balki ko'nglini ham birdek uyg'oq tutadi. Kitob mutolaa insonda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga zinhor yo'l qo'ymaydi.

O'z tajribamdan aytadigan bo'lsam, sevimli adibimiz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi" asarlari, Ahmad Lutfiy Qozonchining "Bir vijdon uyg'onur", Qodiriyning "O'tkan kunlar", Mirach Chag'ri Otashning "Hayot yutqazgan joyingda boshlanar", Songul Unsaling "Kaktuslar ham gulaydi" asarlarni sevib mutolaa qilganman. Ular ruhiyatimni tetik, fikrlarini ravshan qildi. Tengdosh do'stlarimga ham bo'sh vaqtlarini zoye ketkizmay, shu kabi durdona asarlarni o'qishlarini tavsiya etaman.

Zero, kitob insonning umr yo'lida yo'ldoshi bo'lsa, hayot so'qmoqlaridan ravon va mamnuniyat bilan o'tadi.

Zarina SANOEVA



OLIMLARIMIZ QOZONDA BO'LISHDI



Dunyo tan olgan TOR-500 universitetlar reytingida 372-o'rinni egallagan Qozon federal universitetida "KILS-2023" xalqaro lingvistik sammiti doirasida tashkil etilgan "Современная лингвистика: ключ к диалогу" hamda "Татарские языкознание в контексте Евразийский гуманитарной науки" xalqaro ilmiy anjumanlarida BuxDUning 10 nafar filolog olimlari ishtirok etishdi.

Sammit yalpi yig'ilishida Rus tilshunosligi kafedrasini mudiri, dotsent O.T.Nosirov ma'ruzachi sifatida qatnashib, SAMMIT tashkilotchilariga BuxDU rahbariyatining tabrik so'zi va esdalik sovg'alarini taqdim qildi. Xalqaro miqyosda tashkil etilgan SAMMITda Rossiya Federatsiyasining tilshunos, adabiyotshunos, folklorshunos olimlari bilan bir qatorda Xitoy, Turkiya, Koreya, Hindiston, Keniya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning nufuzli OTMlardan vakillar qatnashishdi. Xususan, BuxDU professorlari D.O'rayeva, M.Abuzalova, D.Quvvatova, D.Rajabov, B.Jamilova, G.Toirova, dotsentlar N.G'aybullayeva, Z.Sobirova va magistrant D.Sadullayevlarning ilmiy-nazariy qarashlari sammit shobalarida qiziqish bilan tinglandi. Sammit dasturi doirasida "Tatarstan: Yangi asr" (TNV) telekompaniyasi tomonidan tashkil etilgan davra suhbatlarida O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini mudiri D.Rajabov, Rus tilshunosligi kafedrasini mudiri O.Nosirovlar spikerlar sifatida ishtirok etishdi.

Ahamiyatli tomoni shundaki, KFU Filologiya va madaniyatlararo muloqot instituti o'rtasida imzolangan o'zaro hamkorlik memorandumiga muvofiq, ilmiy-tadqiqot faoliyat doirasida 1 ta lug'at, 4 monografiya nashrga tavsiya etilib 2023-yilning yakuniga qadar nashr etish masalalari muhokama etildi.

Buxoro davlat universitetining filolog olimlari Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universiteti Filologiya va madaniyatlararo muloqot institutida o'zaro hamkorlikning yangi loyihalari bo'yicha qizg'in ish olib bordilar.

Jumladan, Jurnalistika va mediakommunikatsiyalar oliy maktabi dekani L.G.Tolchinskiy kelgusida BuxDU jurnalistika, axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi o'rtasida yo'lga qo'yiladigan hamkorlik ilmiy-nazariy, amaliy jihatdan samarali bo'lishini ta'kidladi.

Darhaqiqat, o'tgan asr o'rtalarida asos solingan bu fakultetning o'quv rejalarini tuzish, jurnalistika va mediakommunikatsiyaning zamonaviy ko-

rinishlari, talabalarning ijodiy mediamahsulotlarni tayyorlash uchun mavjud teleradio studiyalar, fotostudiyalar, ikki tomonlama hamkorlik, talabalarlarning akademik almashinuvi, magistraturada o'qish, professor-o'qituvchilarining tajriba almashinuvi uchun istiqbolli hisoblanadi.

Qolaversa, Qozon federal universiteti shu yo'nalishdagi zamonaviy trendlar bo'yicha qisqa muddatli onlayn, oflayn o'qishlar tashkil etib, hujjatli filmlar, mediamahsulotlar yaratish, umuman televideniye va reklama san'ati bo'yicha mutaxassislar tayyorlab, diplom berishini ham ma'lum qildi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar tomonidan FMMIning bakalavriat va magistratura yo'nalishlariga mahorat darslari va maxsus fanlar bo'yicha ma'ruzalar belgilangan reja asosida o'tildi.

Zamonaviy yangi texnologiyalar va jurnalistika istiqboli o'zaro hamkorlikning ushbu yangi loyihasi bo'yicha forumlar, konferensiyalar tashkil qilish, malaka oshirish kurslari hamda tajriba almashish orqali yangi bosqichga ko'tarilishiga ishonamiz.

Quvonarlisi, Qozon federal universitetining Mirzo Ulug'bek nomidagi ilmiy-tadqiqot markazida "O'zbek tili markazi" tashkil etildi.

Buxoro davlat universitetining bir guruh olimlari Rossiya Federatsiyasi KFUning Filologiya va madaniyatlararo muloqot instituti huzuridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi ilmiy tadqiqot markazida umumiy tilshunoslik va turkologiya kafedrasini ko'magida "O'zbek tili markazi"ni tashkil etishda amaliy yordam berdilar.

Davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, uning tatar tili bilan aloqalari istiqbollari belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan rossiyalik fuqarolar uchun BuxDU filolog olimlari tomonidan o'zbek tilida yaratilgan monografiyalar, o'quv qo'llanmalar, so'zlashgichlar va darsliklar "O'zbek tili markazi"ga sovg'a sifatida taqdim etildi. Shuningdek, ushbu markazning yangi yilga mo'ljallangan o'quv dasturi FMMI olimlari bilan hamkorlikda muvofiqlashtirilib, rivojlantirish istiqbollari belgilab olindi.

Bu kabi xalqaro tajriba almashinuvlari muntazam o'tkazilishi kelishib olindi.



Endigina atak-chechak qilib yurishni o'rganayotgan jiyanim kitoblarga qiziqadi - ularni hali o'qishni bilmasa-da, varaqlab ichidagi suratlarini, bejirim muqovasini tomosha qilishni xush ko'radi. Boshqa bir jiyanim esa buning teskarisi - uni faqat telefon-u multfilmlar, turli onlayn o'yinlar "tinchlantiradi", yupatadi, aytganini qilmasangiz, tomoshani ko'ravering...

Eng BAXTLI VA BOY odamlar



Shunda o'ylanib qolaman: insonning kitobga bo'lgan mehri yoshga emas, bolaligidan berilajak go'zal tarbiya va oilada shunday muhitni yarata olgan kattalarning e'tibori-o'rnagiga bog'liqmikan deb. Menimcha shunday. Sababi ko'pgina oilaviy yig'indatbirlarda buning bir necha bor guvohi bo'lganman. Yoshi ulug' qarindoshlarim orasida ko'zidan nur ketgan bo'lsa ham hanuz badiiy, tarbiyaviy kitoblarni mutolaa qilib, taassurotlarini atrofdagilar bila o'rtoqlashishni xush ko'ruvchilari bor. Ular bilan suhbatlashar ekansiz, bir-biridan qiziq rivoyatlar, hikoyatlarni eshitasiz, dunyoqarashingiz, hayotga bo'lgan qarashlaringiz o'zgaradi, beixtiyor o'zingizni isloh qila boshlaysiz. O'rinli pand-nasihatlardan esa kerakli xulosa chiqarasiz. Afsuski, ayni paytda atrofimizda bu kabi insonlar safi tobora kamayib boryapti. Kitob, bilim, ziyo haqida gapirishni boshlasangiz ensasi qotib, hatto davrani tark etguvchilar ham topilib turadi. Aksar yoshlarimiz esa ijtimoiy tarmoqlar-u onlayn muloqotga mukkasidan ketgan. Jonli muloqot, kitobxonlik kechalari, adabiyot bilan bog'liq bahs-munozaralar ular uchun qiziq emas go'yo.

E'tibor bering, bugun dunyodagi ko'pgina mam-lakatlarda ichki nizolar, turli ziddiyatlar, ekstremistik oqimlar avj olgan. Bularning sababi nima deb o'ylaysiz? Ma'nau zaiflik, mafkuraviy bo'shliq, ilmsizlik emasmi?! Biz yoshlarimiz, farzandlarimizdan buyuk allomalar, ma'rifatparvar insonlar yetishib chiqishini kutayotgan bir paytda atrofimizda voyaga yetmaganlar bilan bog'liq huquqbuzarliklar, jinoyatlar kundun-kunga avj olmayaptimi? Afsuski, yuqoridagi savollarga javobimiz birgina "Ha!"

Keling, bugun jamiyatimizdagi bu illatlarga sabab bo'layotgan tik-tok, you-tube, instagram haqida yoki mana shu tarmoqlarda "reyting"ini oshirish uchun o'zini har ko'ygga solayotgan yoshlar, bu kabi holatlarga sabab bo'layotgan ayrim "internet yulduzlari" xususida bahslashmaymiz. Ahvol shunday ham barchaga ayon.

Xo'sh, yosh avlodni kitobga, ilmga qaytarish borasida qanday aniq taklif va tavsiyalar bera olamiz - shunisi muhim! Fikrimcha, farzandni u hali ona qornidaligidayoq tarbiya etilishga muhtoj. Sababi onasi qilayotgan har bir xatti-harakat homila rivojida o'z aksini topadi: asabiy og'iroyoqdan yig'loqi va injiq, tinch va sokin onadan faqir, yumshoq tabiatli bola dunyoga

keladi. Demakki, ziyoli, kitobxon onadan albatta kitobga mehrlar farzand tug'iladi. Navbatdagi qadam avvalo, ota-ona farzandiga chiroyli o'rnak bo'lib, uni kitobga bo'lgan mehri uy'gotishi mumkin. Buning uchun xarxasg qilayotgan bolaga osongina telefon yo gajetlarni tutqazib, hadeganda multfilm yo qo'shiqlar qo'yib bermay, birgalikda kitob o'qishni, mutolaa qilinayotgan ertakdagi har bir qahramon yoki suratni bolaga tushunarli tilda izohlab berish zarur. Farzand ulg'aygani sari uni ham ma'nau, ham moddiy rag'batlantirib, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Masalan biror kitobni o'qib tugatsa, birga hayvonot bog'iga borishni yoki bola uchun zarur yangi nimadir xarid qilishga va dalalashish mumkin. Xullas, kitobxon farzandni voyaga yetkazish uchun bor imkoniyatdan foydalangan ma'qul.

Mutafakkir-allomalarimiz johillikning birinchi belgisi-go'zallikni ko'rmaslikdir, deydi. Haqiqatdan ham shunday. Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohatlar sodir bo'lmoqda, odamlarimiz tafakkur tarzi o'zgarimoqda. Ana shu ijobiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga yetkazish ham bugunning dolzar muammolaridan biri.

Kitob o'qish barchamizning ma'naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilimizdagi ayrim vatan-doshlarimiz "xizmati" tufayli dag'allashib, kambag'al-lashib borayotganligining oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim. Vaholanki, bizning o'zbek tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. A.S.Pushkin butun ijodi davomida jami 21 197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlari tilida jami 20 mingdan ortiq so'z qo'llanilgan. Ispan olimlari Servantesning ijodida 18 ming so'z qo'llanilgan haqida ma'lumot berganlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni esa 26000dan ortiq ekan.

Gapning indallosini aytganda, inson ma'naviyatli bo'lishi uchun kitob o'qishi shart va zarur. So'zni, o'zini, kitobxonni hurmat qilgan odamgina kitob o'qiydi. "Dunyodagi eng baxtli va eng boy odam kim?" deya so'rasangiz, "shubhasiz ko'p kitob o'qigan va ilm etagidan mahkam tutgan inson" deya javob qaytargan bo'lardim.

Marhabo INOMJONOVA,
talaba.

* FIKR

YARMI senga, menga...

Xalq orasida ota-onasi vafot etgan bolalarni "chin yetim" deyish urfga aylangan. Xalqimiz nazarida ona bilan qolgan bola "gul yetim", ota bilan qolgan esa "shum yetim"dir. Ota-onasi tirik bo'la turib, tashlab ketilgan bolalar "tirik yetim" hisoblanadi. Ota-onasi tirik bo'lsa-da, bolalar uyida yashayotgan jajilarimizning qismati yanada og'ir...

Xo'sh, bunga sabab nima? Bu yosh, jajigina qalblarning aybi nimada? Nima ota-onasi bir-biri bilan kelishmasa, ayb bolalardami?

"Mehribonlik uyi"da yashayotgan bolalar uchun davlat tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kerak bo'lsa, ota-onasi yaratib berolmaydigan sharoitlar bor. Lekin bu bilan kemtik qalb to'larmikin? Zero, bu bo'shliqni faqatgina ota-ona mehri bilan to'ldirish mumkin. Ularning birdan-bir orzusi — ota-onasi bilan birga, bir oila bag'rida yashash. Ular buning uchun barcha shartlarga rozi bo'lishadi.

Yigit va qiz turmush qurishdi. Farzand dunyoga keldi. Ota-onaning kelishmovchiligi ajrimgacha yetib bordi. Mol-mulkni teng bo'lishdi. Farzand-chi? Uni ham ikkiga bo'lishsin, qo'li - otasiga, oyog'i — onasiga. Alhazar! Afsuski, shu birgina go'dak otaga ham, onaga ham og'irlik qildi va uni "Mehribonlik uyi"ga topshirishdi. Qarabsizki, bu ortiqcha yukdan qutulib, "erkin qush"ga ay-lanishdi.

Aksariyat bolalarning taqdiri xuddi shunday bo'lgan. Biz yonimizdagi ota-onamizga qattiq gapirib, ularni xafa qilib qo'yamiz. Bu bolalar esa birgina "qizim, qizalog'im" yoki "o'g'lim, polvo-nim" degan so'zga zor.

Inson shunday zotki, u biror narsani yo'qotma-guncha, uning qadriga yetmaydi. Bolalarning ko'zlariga qarasangiz, beg'uborlik, samimiyluk va naqadar begunoh ekanliklari ko'rinib turadi. Xo'sh, shunday ekan, qaysi vijdon bilan bu bolalarni tashlab ketishyapti? Nima, odamzod shunchalik vahshiy bo'lib ketdimi?..

Dunyoda yaxshi insonlar ko'p. Prezidentimiz tashabbusi bilan "Mehribonlik uylari" O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tasarrufiga o'tkazildi. Gvardiya xodimlari bolalarni o'z qaramoqlariga olishdi. Hozirgi kunga kelib, respublikamizning Navoiy, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida "Mehri-bonlik uyi" qolmadi. Bu yo'nalishdagi ezgu ishlar davom etmoqda.

Yoshligimdan buyon meni o'ylantirayotgan masala bugun o'z yechimini topdi. Bolalar "qizim", "o'g'lim" degan so'zni ota-ona tilidan eshitish baxtiga sazovor bo'lishdi. Tez orada boshqa viloyatlarda ham "Mehribonlik uylari" qolmaydi va barcha bolalar ota-ona bag'rida voyaga yetishadi, degan ezgu o'ydamani.

Xalqimizga xos bu yuksak insoniy fazilatga aslo ko'z tegmasin! Hech bir bolaning ko'zidan nohaq yosh oqmasin. Zero, donishmand bobolarimiz ta'kidlashganidek, bolaning nohaq to'kilgan ko'z yoshi arshni larzaga soladi.

Malika HOMIDJONOVA,
BuxDU jurnalistika yo'nalishi talabasi.

Menga armon arg'imchoqlar

Otasi bor qizlarga havasim keladi. Bog'chadan otasi qo'lidan ushlab, yetaklab ketayotgan yoqimtoy, jaji qizaloqlarni kuzata turib entikib ketaman.

...Otasi yetim gul yetim, onasiz yetim shum yetim, deyishadi. Qiziq, men qaysi biriga kirsam ekan?! Otam bor, lekin uni quchib qachon "ota" deganimni eslolmayman. Esimni tanibmanki, katta hovlining yarmida onam, akam va men, qolgan yarmida esa otam yangi oilasi bilan yashaydi (hovlini mahalla shunday taqsimlab bergan).

Hanuz yodimda... Chamasi 15 yil ilgari o'sha hovli etagidagi katta daraxtga ikki arg'imchoq ilindi. Biz uchun emas, otamning ikkinchi xotini va bolalari uchun. Akam va men nuqul o'sha arg'imchoqqa tikilamiz. Uch o'g'il esa har kuni bearmon

arg'imchoq uchishadi. Maktabga ketaverishda ham, qaytaverishda ham u tomonga qaramaslikka harakat qilamiz. Ammo arg'imchoqda sho'x-shodon, qiy-chuvlashib uchayotgan o'gay ukalarim ovozi ko'nglimni buzadi, xo'rligim kelib, yig'lamoqdan zo'rg'a tiyilaman. Uyg'a kirib, parda ortidan tag'in mo'ralayman, havasim keladi, arg'imchoqlarda miriqib uchishni orzu qilaman.

Bir uyda yashab, otamni har kun ko'rsam-da, "dadajon" deya yugurib, quchog'iga o'zinni otolmasligim, etagi erkalanib o'tirolmasligim ko'nglimni battar ezardi. Uzoqlarga qochib ketgim kelardi. O'shanda atigi 8 yoshar qizaloq edim. Otamni juda sog'insam-da, bariga chidardim.

Oradan ancha yillar o'tdi, bosilgan izlarni tuproqlar yopdi. Maktabni bitirib, o'qish uchun Toshkentga

ketdim. Akam ishlagani Amerikaga yo'l oldi. Meni o'qitdi, turmushga chiqdim. Turmush o'rtog'im bilan ikkimiz Toshkentda yashar edik, onamni ham o'sha uydan olib ketishga qaror qildik. ...Barcha yuklar mashinaga ortildi. Ketar chog'i ko'zim yana o'sha eski arg'imchoqlarga tushdi. Arg'imchoqlar havoda bo'm-bo'sh yengil silkinardi. Men uchishni orzu etgan o'sha arg'imchoqlar... Birdan bo'g'zimga alam aralash yig'i tiqildi. Ortiq halinchaklarga qarolmadim. O'z otam qurgan arg'imchoqlarga ucholmaganim mening eng katta armonim edi. Turmush o'rtog'im yonimga kelib nimaga bo'lganini so'radi. Lablarim "menga armon arg'imchoqlar" deya pichirlay oldi, xolos. Uydan yugurib chiqib ketdim.



SUV — BEBAHO NE'MAT!

Bobomning o't balosi, suv balosi, tuhmat balosidan asrasin deya har gal dasturxon yig'ilganda aytadigan duolari esimdan chiqmaydi. O'sha paytlar yosh bola ekanimmi bu jumalarning ma'nosini tushunmasdim. Hatto ba'zan sho'xlik bilan ulardan oldin aytib qo'yardim. Bobom miyig'ida kulib allaqanday yong'inlar, suv toshqinlari (adashmasam Nuh to'foni edi) do'stining unga qilgan nohaq tuhmati haqidagi ertaklari-yu, hayotiy haqiqatlarini ayta ketardi. Kun bo'yi chopib charchagan men esa voqealar og'ushida uxlab qolardim. Yoshim ulg'aydimi yoki bobomning o'tmishi endi ta'sir qildimi, men o'sha duo zamiridagi mohiyatni anglayapman. Oddiygina suv misolida. O'sha inson suv balosi deya faqatgina toshqinlar yoki suv bosishinigina emas, qurg'oqchilikni ham nazarda tutgan ekan. Shu yil yoz anomal sovuqning qarzini anomal issiq va jazirama yozdan oldi. Qishloqda yashamaymizmi, ekinlar so'ligan, daraxtlar xuddi kuz kelganday mung'aygan, meva va sabzavotlarda karsillamalik yo'q. Palakdan uzib chaynaysan-chaynaysan xuddi soxta machalkadek. Bodringlar, qovoqlar bemag'iz. Chertsang bum-bum qiladi. Sabab bizga suv yetkazib beradigan kanal atrofini betonlashtirish ishlari bo'ldi.

Aksiga biz tomonlarga toza ichimlik suvi tizimi yo'lga qo'yilmagan. Suvso'tar mashinalardan xarid qilamiz bochka-bochka, chelak-chelak. Ayrimlar esa sun'iy sement quduqlarda zaxira jamlaydi. Har kimda har xil bozor. Kimdir qo'shnisidan yetmay qolgan paytlari suv so'rab ham chiqadi. Kimdir "Shu qurg'ur ish bahorda yoki qish-kuzda qilinsa bo'lmaydimi, suvga ehtiyoj kam bu paytda", - dedi. Yana birov esa beton ko'p suvni o'ziga shimmaydi va kichraytirilgan ariq-zovurlardan kam suv keladi deya qo'l siltab qo'ya qoldi. Ayni shu yo'nalishga yoki muhokama maydoniga tushishni sevishimga sabab oilaviy muhit bo'lsa kerak. Har respublikaviy yig'ilishlarning sharhi bizning uyda tahlil bo'ladi. Ustozimiz mavzu berganlari esimdan chiqqan ekanmi ota-onamning tahlili yodimga soldi. Mavzu:endi artezian suv chiqarish tizimlariga ham hisoblagich qo'yish ekan. Ko'p tahlil-tushuntirishlar bo'ldi. Otam oddiy xalqning shu uchun ham pul to'lashidan achindi. Onam endi tejamkorlikni boshlaymiz yo'qsa byudjetga zarar deya hangoma qildi. Ukam tarixchi-geograf emasmi, daryo -ko'llar nomini ayta ketdi. Tahlil esa menga qoldi. Kecha qayd qilgan ma'lumotlarimni boshladim. Biz Amu va Sirning obi hayotidan foydalanamiz. Ammo bu daryolar birgina bizga

tegishli emas ekanligini uning 74 foizi Tojikistonga, 13.9 foizi Afg'oniston va Eronga atigi 8,5 foizi O'zbekistonga to'g'ri kelishini uqtirdim. Bundan tashqari tojik zabolarda Panji tarmog'ida Rushan, Dashti jum, Yuqori Amudaryo va boshqa GESlarning qurilish loyihalarini rejalashtiryapti deganimda hamma jim bo'ldi. Ular tushundiki, shundog'am katta miqdorni yutib turgan Norak Gesiga bular ham qo'shilib, tomchini ham so'radi. Yana ayta ketdim bitta shaxsning bir sutkada bir ehtiyoji ham ichishi, ham sanitariyasi uchun 70 litr suv kifoya, bu BMT tomonidan tasdiqlab qo'yilgan. Ammo Yevropada istiqomat qiluvchilar 200 litr amerikaliklar 400 litr ishlatishini aytishim bilan o'tam 2025-yilda dunyo bo'ylab 3milliard aholi suvsiz qoladi, 10yildan so'ng balkim uy-joyimiz bizga begona bo'lar deb horg'in gapirdilar. Siz qayerdan bildiz degan savolimga: boladan oldin

qadam tashlovchilar kim qizim degan javob bo'ldi. Hammadan ko'p o'kinchim kuni bo'yiga 5litr suv ishlatadigan qurg'oq yerlar aholisiga bo'ldi. Dasturxon esa ilohi Ollah asrasin! Yog'ingarchilik me'yorga tushib, obi rahmat ortsin, bandalarning g'amini o'zing ye, balolardan asra deya yig'ildi...

Mohichehra ASKAROVA,
Jurnalistika ta'lim yo'nalishi,
3-kurs talabasi

Hikoya

YO'QOTILGAN BAXT

Nargiza o'sha kechasi bir oyog'idan ajralib qolishi yetti uxlab ham tushiga kirmagandi. Bunday voqea bo'ladi, deb kim ham ham o'ylabdi, deydi kishi. U baqirmoqchi bo'lsa-da, uning ovozi hech kim eshitmas edi. Endi buning hikoyasini bir tarafga olib qo'yaylikda, Nargizaning dugonasi Lola haqida gaplashaylik.

Lola o'sha voqea sodir bo'lgan tunda Nargiza dugonasini mehmonlikka chaqiradi. Ikki dugona birgalashib kechki ovqatni qilishdi. Keyin birgalikda o'yin-kulgi qilib dars qilishdi. Lolaning uyida sandal bo'lardi, bu nima ekanligini Nargiza bilmas edi. Chunki umri davomida Nargizani uyida sandalidan foydalanishmagan. Ular sandal atrofida uxlashar ekan, o'sha tunda Nargizaning oyog'i olov cho'g'iga tushib ketgan. Xona sovuqligidan Nargiza buni payqamay qolgan. Chunki u shirin uyqu og'ushida bo'lgan. U oyog'i kuyganini afsuski, kech bilgandi. Uning oyog' hujayralari ishdan chiqib bo'lgandi. Eng achinarlisi, u ko'zini ochganda oyog'laridan ayrilib bo'lgandi bu esa kishini daxshatga soladi. Hamma yoq tinch tepada osib qoyilgan osma tomchilari yaqqol eshilib turardi. U shundan shifoxonada ekanligini payqadi. Tepasida yaqin insonlari yig'lab turishardi. Nargiza bir oyog'idan ayrilgani haqida hali xabari ham yo'q edi. U hayron bo'lib g'ayrioddiy holatda dugonasi Loladan so'rardi. Lolani ich-ichidan aybdorlik hissi qamrab olardi u aybdor bo'lmasa ham. Hech kim javob bera olmay lom-mim deyisha olishmadi. Nargiza birdaniga g'alati bo'lib qoldi. Chunki oyog'ini qimirlatib yuborganida bir oyog'i yo'qligini sezib qoldi. Uning ichidan bir narsa uzilganday bo'ldi va qichqirib- yig'lab yubordi. Uni qancha ovutishmasin hayotga bo'lgan ishonchi o'lib bo'lgandi. Hayotini zulmatga aylntirish uchun bir lahzalik qarorlar yetarlidir.

Keyin esa... Lola eng yaqin dugonasini ko'rib chidab turolmadi. O'zida aybdorlik hissini seza boshladi. Lola bularni o'ylab o'yiga yetolmasdi. Chunki eng yaqin dugonasi bir umrga nogiron bo'lib qolgandida. Nargizaning bor umidlari sinib bo'lgandi. Hayotga ishonchi ham, maqsadi ham qolmagandi, qattiq tushkunlikka tushib qolgandi. Bitta e'tiborsizlik qilingan holat shuncha voqeaga aylanib ketdi. Shunday bo'lsa-da, inson qayta turolmaydigan darajada yiqilsa ham bir kun yana oyoqqa turushga umid qilishi kerak, chunki umid qilmoq Yaratganga suyanishning eng chiroyli ko'rinishidir.

Marjona BOMURODOVA,
Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi.

"VATAN HIMOYACHILARI KUNI" MUNOSABATI BILAN UNIVERSITETIMIZDA BAYRAM TADBIRI

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar hamda Tarix va yuridik fakultetlari tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Unda mehmon sifatida ofitser-serjantlar, harbiy xizmatchilar hamda universitet professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlari ishtirok etishdi.

Tadbirni universitetning yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Azizbek Amonov kirish so'zi bilan ochib berdi.

Tadbirda so'zga chiqqan Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i polkovnik Mirjamol Miralimov muhtaram Prezidentimiz – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, xalqimizning osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiyani shakllantirish, Qurolli Kuchlarni tezkor boshqarishning zamonaviy tizimini yaratish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, umuman, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidladi.

Tadbir davomida Vatanparvarlikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar xonandalar ijrosida kuylandi hamda iqtidorli talaba-yoshlar tomonidan she'riy chiqishlar, raqslar havola etildi.



«BUXORO UNIVERSITETI»



NASHR UCHUN MAS'UL:

Filologiya fakulteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida

TAHRIR HAY'ATI:

R. Jumayev,
T.Rasulov, A.Jo'rayev,
A.Amonov,
O'.Rashidov,
Q.To'xsanov,
G'.Murodov,
D.Rajabov, Z.Amonova

Bosh muharrir:

O.XAMIDOV

Adabiy kotib:

B.JAMILOVA

Mas'ul muharrir:

Z.ASADOVA

Operator-dizayner:

Mubina TOYIROVA

MANZIL:

Buxoro shahri
M.Iqbol ko'chasi,
11-uy.